

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 1

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 1

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Uşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Botir Elov, Oqila Abdullayeva, Mastura Primova

O'zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlashdagi morfologik, sintaktik va semantik tahlil metodlari.....6

Günay Babayeva

Dil biliminde toplumsal cinsiyeti ifade eden kelimeler.....49

Adabiyotshunoslik

Zarina Rahmonova

Alisher Navoiy ga'zallarida poetik sintaksis hodisasi (professor Bahodir Sarimsoqov tadqiqotlari asosida).....64

Lütviyyə Əsgərzadə

Qulu Ağsəsin şeir – mətnlərinin analizi və yorumlanması.....78

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

O'rta asrlardagi O'zbekiston xaritasi.....93

San'at

Sevda Beheshti

Navoiy she'riyatining miniatyuralarda aks etishi (Eron fondlaridagi miniatyurali qo'lyozmalar asosida).....125

CONTENT

Linguistics

Botir Elov, Oqila Abdullayeva, Mastura Primova

Morphological, Syntactic, and Semantic Analysis Methods in
Natural Language Processing in Uzbek.....6

Gunay Babayeva

Words expressing Gender in linguistics.....49

Literature

Zarina Rahmonova

The Phenomenon of Poetic Syntax in Alisher Navoi's Ghazals (Based
on the Studies of Professor Bahodir Sarimsoqov).....64

Lutviyya Asgarzada

Analysis and Interpretation of Gulu Agses' Poetry-texts.....78

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Map of Uzbekistan in the Middle ages.....93

Art

Sevda Beheshti

Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A Study of
Illustrated Manuscripts Preserved in Iranian Collections).....125

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE

Alisher Navoiy ga‘zallarida poetik sintaksis hodisasi

(professor Bahodir Sarimsoqov tadqiqotlari asosida)

Zarina Rahmonova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Alisher Navoiy g‘azallarida uchraydigan poetik sintaksis hodisasi haqida fikr yuritiladi. Ma‘lumki, poetik sintaksis har bir badiiy usul va vositaning badiiy asar matnidagi sintaktik vazifasi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Asar muallifining maqsadi va ma‘lum bir vositaga qanday uslubiy vazifa yuklaganligi, uni qanday usulda yetkaza olganligini tekshiradi. B.Sarimsoqovning “Alisher Navoiy poetik sintaksisidagi bir usul xususida” nomli tadqiqotida ham poetik sintaksisning ayni shu jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Ungacha ham G‘arb va Sharq she‘rshunoslari tomonidan poetik sintaksisidagi ko‘plab vosita va usullar badiiylik hodisasi sifatida o‘rganilgan. B.Sarimsoqov kashf etgan sintaktik usulning ulardan farqli jihati, aruz tizimida, xususan, Navoiy g‘azallari kontekstida teran falsafiy-mantiqiy fikrni emotsional tarzda ifodalash vositasi sifatida talqin etishida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *epik nasr, saj‘li nasr va vaznli nasr, qiyosiy-tipologik, sintaktik-semantik, turk she‘riyati spetsifikasi, she‘riy kanonlar.*

Kirish

Ma‘lumki, bugungacha so‘z ilmida Navoiy asarlarining turlicha talqinlari yaratilgan. Shoirning nazmiy, nasriy va boshqa turdagi asarlari tadqiqotchilar tomonidan adabiy-tanqidiy, falsafiy, psixologik, diniy-tasavvufiy va boshqa jihatlardan tadqiq etilgan. Professor Bahodir Sarimsoqov esa Navoiy ijodiga ilmiy-nazariy jihatdan yondashdi. Xususan, olim "Alisher Navoiy poetik sintaksisidagi bir usul xususida" [Саримсоқов 2001, 2], "Alisher Navoiy she‘riyatida g‘azal-muloqot shakllari" [Саримсоқов 2004], "Alish-

¹Rahmonova Zarina – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

E-mail: chechak@mail.ru

ORCID ID: 0009-0009-3941-7448

Iqtibos uchun: Rahmonova, Z. 2025. "Alisher Navoiy ga‘zallarida poetik sintaksis hodisasi (professor Bahodir Sarimsoqov tadqiqotlari asosida)". *O‘zbekiston: til va madaniyat* 1: 64 – 77.

er Navoiy va she'riy mezonlar masalasi" [Саримсоқов 2004], "Badiiy ijodning ikki asosi" kabi maqolalarida mumtoz adabiyotdagi she'riy kanonlar, Navoiy lirikasida poetik sintaksis va g'azal muloqot masalalari, badiiy ijoddagi mimises va matezis muammolarini individual tarzda tadqiq etdi.

Uning tadqiqotlarida poetik va lingvistik tahlillar uyg'unlashib, adabiy matnning sof filologik talqinlari yuzaga chiqqan. Ulardagi ijodiy individuallik – ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan qamrab olinganligi, fikrlar izchilligi, aniqligi, ilmiy asoslanganligi, maqsadliligi va kashfiyotlarga boyligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Asosiy qism

Ma'lumki, sintaksis (yunoncha syntaxis – tuzish, birlashtirish; tuzilma, tarkib, birikma) tilshunoslikning so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma'nosi va vazifalarini o'rganadigan bo'limi hisoblanadi [Ўзбек тилининг изоҳли луғати 2007, 514]. Jahon tilshunosligida poetik sintaksisni faqat she'riy nutqning sintaktik qurilishini o'rganuvchi yo'nalish sifatida baholab, uni nasriy asarlar tuzilishini tadqiq etuvchi an'anaviy sintaksisdan faqlash uchun qo'llaydiganlar ham, yoki uni yo'nalish sifatida alohida e'tirof etilishi shart emas, har qanday nutq birliklari sintaksis sathida tadqiq etiladi [Небросина 2014, 5], deb hisoblaydiganlar ham uchraydi. Poetik sintaksis har bir badiiy usul va vositaning badiiy asar matnidagi sintaktik vazifasi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Asar muallifining maqsadi va ma'lum bir vositaga qanday uslubiy vazifa yuklaganligi, uni qanday usulda yetkaza olganligini tekshiradi. B.Sarimsoqovning «Alisher Navoiy poetik sintaksisidagi bir usul xususida» nomli tadqiqotida poetik sintaksisning ayni shu jihatlari e'tibor qaratilgan. Ungacha ham G'arb va Sharq she'rshunoslari tomonidan poetik sintaksisdagi ko'plab vosita va usullar badiiylik hodisasi sifatida o'rganilgan. B.Sarimsoqov kashf etgan sintaktik usulning ulardan farqli jihati, aruz tizimida, xususan, Navoiy g'azallari kontekstida teran falsafiy-mantiqiy fikrni emotsional tarzda ifodalash vositasi sifatida talqin etishida namoyon bo'ladi.

Olimda mazkur masalaga oid ilk tasavvurlar dastlab folklor janrlari poetikasini o'rganish jarayonida tug'ilgan. Ya'ni u xalq epik she'riyatidagi saj'ning vazifalari, qofiya va saj' o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni ko'rsatib berish, shuningdek, xalq marosim folklori janrlarining she'riy tuzilishini tekshirish asnosida she'rshunoslik va she'riy tizimlarga oid ilmiy-nazariy asarlarni o'rganadi. Bunday

tadqiqotlar orasida Umar ar-Roduyoniyning «Tarjimon ul-balagʻa», Rashidaddin Vatvotning «Hadoiq us-sehr fi daqoiq un-sheʻr», Bahrom Saraxsiyning «Gʻoyat ul-aruzay», «Kanz ul-qofiya», Shamsi Qays ar-Roziyning «Al-moʻjam fi maʻoyiri ashʻor il-ajam», Abdurahmon Jomiyning «Risolayi qofiya», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», Atoullloh Husayniyning «Badoyiʻu-s-sanoyiʻ», Boburning «Muxtasar», Vohid Tabriziyning «Jamʻi muxtasar», Siddiqi Husayniyning «Majmaʻ us-sanoyeʻ» kabi sharq sheʻrshunoslik manbalari bilan bir qatorda V.M.Jirmunskiyning «Sheʻr nazariyasi» [Жирмунский 1964, 24], V.V.Tomashevskiyning «Stilistika va sheʻriyat» [Томашевский 1959, 406], I.V.Steblevaning «VI-VIII asr turk sheʻriyati», «Arab-fors qofiya nazariyasi va turkiy sheʻriyat», «Bobur gʻazallari haqida» [Стеблева 1966, 246-254] kabi asarlari ham bor edi. B.Sarimsoqov ulardan qadimgi turkiy adabiyot namunalari tahlilidan tortib, vaznli nasr, metrik sheʻr, barmoq va aruz tizimlari hamda zamonaviy sheʻr qonuniyatlarigacha oʻrganadi; ulardan poetik nutqning fonetik, morfologik, semantik, leksik, poetik, ritmik va evfonik jihatdan tahlil qilish usullarini ijodiy oʻzlashtiradi. Umuman, B.Sarimsoqovning ijodiy individualligi badiiy asarga ham lingvistik, ham poetika nuqtayi nazaridan – lingvopoetik yondashuvlarida koʻzga tashlanadi.

Foklorda poetik sintaksis

Olimning «Oʻzbek marosim folklori» asaridagi shamolni haydash marosimida kuylanadigan «Choy momo» qoʻshigʻining sheʻriy tuzilishiga oid tahlillarida ayni shunday lingvopoetik jihatlar aks etgan. U «Choy momo» qoʻshigʻining ayrim variantlaridagi boʻgʻinlar miqdorining nomutanosib boʻlishiga qaramay, ohangiga putur yetmaganligiga anjambeman hodisasi sabab boʻlganini koʻrsatib beradi. Anjambeman barmoq vazni qonuniyatlari buzilishiga olib kelar ekan, unda ushbu hodisaning xalq sheʻriyatida qoʻllanilishi boisi nimada edi? Buni olim «Choy momo» qoʻshigʻining dastlabki variantlari poetik shaklga ega boʻlmaganligi, marosimda kishilarning iltijolari oddiy nasriy xitoblar shaklida bayon etilganligi bilan izohlaydi: «Koʻp davrlar mobaynida qoʻllanaverish oddiy prozaik xitoblarning muayyan ritmik qolipga tushishiga olib kelgan. Ammo marosim qoʻshigʻida asosiy diqqat-eʻtibor marosim maqsadini toʻla, yorqin ifodalash boʻlganligi uchun ham yuqoridagidek metrik qonuniyatlarning buzilish hollari uchrab turadi. Muayyan bir qoʻshiq doirasida turlicha ritmik tebranishlarning mavjudligi ham ushbu fikrimizni tasdiqlaydi». Olim avvalgi tadqiqotlarida ham, aniqrogʻi, «Oʻzbek adabiyotida sajʻ» monografiyasida xalq epik sheʻriyati

haqidagi xulosalarida xalq nasriy she'rlari asosida ritmik-sintaktik parallelizmlar yotishini asoslab bergan edi. Marosim folklori yuzasidan olib borgan keyingi izlanishlardan ma'lum bo'lishicha, anjambeman hodisasi ritmik-sintaktik parallelizmlarga butunlay zid bo'lib, ular she'r vaznidagi mutanosiblik (metrik simmetriya) ning buzilishiga sabab bo'ladi. Xalq she'riyatiga unchalik xos bo'lmagan ushbu hodisa o'ziga yarasha afzalliklari, fikrni to'laroq ifodalash imkoniyati mavjudligi tufayli barmoq vazni qonuniyatlariga zid bo'lsa-da, marosim qo'shiqlarining ayrim variantlarida uchraydi:

Cho'y, cho'y, cho'y moma,
Cho'ymomaning o'lganiga –
Uch kun bo'ldi

Cho'y, cho'y, cho'ymoma [Саримсоқов 1987, 127].

E'tibor bersak, qo'shiqning uchinchi satri jonli ijroda ikkinchi satrning davomi sifatida aytiladi va o'n ikki bo'g'in bo'lishiga qaramay, asli besh bo'g'inli, ammo talaffuzda cho'ziqroq talaffuz etiladigan birinchi hamda to'rtinchi satrlar vazn ichida sezilmay ketadi. Buning natijasida oz bo'lsa-da, vazn jihatdan bir-biriga yaqin ritmik birliklar yuzaga keladi. Shu asosda olim: «birinchi, to'rtinchi satrlarning uch hijo talaffuziga mos holda cho'zilib talaffuz etilishi sakkiz hijoli ikkinchi satrni ham o'ziga uyg'unlashtirib oladi hamda uchinchi satr vazndagi nuqson bo'lib qoladi» [Саримсоқов 1987, 129], deya qo'shiq vaznida anjambeman hodisasi tufayli yuzaga kelgan nomutanosiblikni ko'rsatib beradi. Bu o'rinda anjambeman barmoq tizimidagi she'rlarda nuqsonni yuzaga keltirgan bo'lsa, aruz vaznida esa aksincha, badiiylikni ta'minlovchi, fikriy tugallik va emotsionallik baxsh etuvchi vosita ekanligi olimning keyingi izlanishlaridan ma'lum bo'ladi.

Navoiy g'azallarida poetik sintaksis

Olim poetik sintaksisdagi mazkur usulga Navoiy g'azallari poetikasiga bag'ishlangan tadqiqotida kengroq to'xtaladi [Саримсоқов 2001, 7]. Bunda u mumtoz adabiyotimiz gultoji bo'lgan Navoiy g'azallari poetik sintaksisini o'rganish asnosida buyuk shoirning mahorati qirralaridan yana bittasini kashf etadi.

«Odatda, she'rda misralar mazmunan va shaklan tugal bo'lishlari talab etiladi. Biroq shoir aytmoqchi bo'lgan poetik fikr, u ifodalamoqchi bo'lgan lirik kechinma murakkabligi tufayli baytdagi she'riy misralar mustaqilligi buziladi, – deb yozadi olim anjambeman hodisasi to'xtalib: – birinchi misrada boshlangan poetik fikr ikkinchi misrada yakunlanadi. Tabiiyki, she'riy jumlaning birinchi

misradan ikkinchi misraga ko'chishi va bayt mazmuni, vazni va ohangini buzmagani holda davom etishi ijodkorning san'atkorligini belgilaydi». Bu o'rinda olim poetik sintaksisning muhim masalalaridan bo'lgan she'riy nutqning sintaktik qurilishi va ichki ritm masalasi, ularning o'zaro bog'liqligi, bir-biriga mutanosibligiga diqqat qaratadi. She'riy misradagi fikriy ko'chuv hodisasi Navoiy g'azallarida bayt mazmuni va ritmini buzmagani holda mahorat bilan qo'llagan bir qancha tipologik o'rinlar sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Sintaktik ko'chuv birinchi misradagi ikkinchi hashvdan keyin, ya'ni aruz ruknidan boshlanadi:

Charxi soyir go'yiyo oshiqdururkim, / kechalar

Bor aning ham men kibi ko'p ashki-yu oz uyqusi

[“G'aroyib us-sig'ar” 1959, 457].

2. Sintaktik ko'chuv birinchi misradagi hashvdan oldin, ya'ni sadr ruknidan keyingi o'ringa to'g'ri keladi. Bunday ko'chuv turida ba'zan birinchi hashvning bir hijosi yoki sadrning bir hijosi vazn nuqtayi nazaridan ko'chuv hodisasiga xalal bergandek holatda bo'ladi, ammo fikriy ko'chuv nuqtai nazaridan bu narsa e'tiborga olinmaydi:

May ichingkim, // dahr eli ichra ko'p istab topmaduq

Ahd-u paymonida bo'lg'on ustivor, ey do'stlar

[“Badoye ul-vasat” 1959, 106].

3. Sintaktik ko'chuv ikkinchi misradagi birinchi hashvning birinchi hijosidan keyingi o'ringa to'g'ri keladi:

Rishtayi zulfi xayolidin havo qilg'an ko'ngil

Bir qushdurkim, // qochibdur go'yiyo bog'i bila

[“G'aroyib us-sig'ar” 1959, 427].

4. Sintaktik ko'chuv birinchi misradagi birinchi va ikkinchi hashvlar o'rtasiga to'g'ri keladi. Biroq bu xildagi ko'chuv nihoyatda kam uchraydi. Misol:

Xo'blarg'a chun vafo yo'q, // avlo uldurkim, ko'ngil

O'zni ul qattig' ko'ngulluglarga mu'tod etmasa

[“G'aroyib us-sig'ar” 1959, 43].

5. Sintaktik ko'chuv ba'zan birinchi misradagi ikkinchi hashvning birinchi hijosidan keyingi o'ringa to'g'ri keladi. Misol:

Kechalar hajringda behudmen, // mening holimg'adur

Sham'ning goh kuymagi, goh nolasi, goh riqqati

[“G‘aroyib us-sig‘ar” 1959, 456].

Olim poetik ko‘chuv hodisasining «shunchaki ko‘chuv hodisasi emasligi»ni, u baytdagi «poetik mazmuni to‘g‘ri, mantiqiy ifodalashning muhim vositasi» ekanligini Navoiy g‘azallarining kauzal tahlillari misolida ham yanada aniqroq ko‘rsatib beradi. B.Sarimsoqov fikricha, anjambeman hodisasi ko‘pincha baytda aytilgan poetik oqibatning sabablarini yoki sababning oqibatlarini izohlashga, baytda ifodalangan poetik fikrni to‘g‘ri ilg‘ab olishga yordam beradi. Bu fikrni Navoiyning:

«Aylamang bekasligimni ta‘n, bir kun // bor edi

Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do‘stlar» [“Badoye ulvasat”, 106-bet] bayti tahlili misolida izohlaydi. «Birinchidan, lirik qahramon «yorga, mahbubaga yoki raqibga» emas, balki «do‘stlarga» murojaat etmoqda. Milliy ruh, milliy xarakterdan, turkiy xalqlar mentalitetidan kelib chiqilsa, «do‘stlar» har kuni emas, faqat bir kun – payti, vaziyati taqozo etgandagina lirik qahramonning yorsizligini ta‘na qilishlari mumkin», deya masalaga milliy va mantiqiy talablar asosida yondashadi olim. Bu o‘rinda undagi kuchli mantiqiy tafakkur bilan bir qatorda, xalq ruhiyatidagi nozik nuqtalarni ilg‘ay oladigan teran kuzatuvchilik xususiyati ham yorqin ifodasini topgan.

Barmoq tizimiga asoslangan xalq she‘riyatida anjambeman hodisasining qo‘llanishi unchalik ijobiy natija bermasligini, ritmda nomutanosiblikni vujudga keltirishini B.Sarimsoqov marosim qo‘shiqlari kontekstida ko‘rib chiqqan bo‘lsa, aruz vazni ustida olib borgan keyingi izlanishlari olimda «mumtoz g‘azalchilik an‘anasida she‘rning ritmik tuzilishi va misralarning taqte‘lanishi bevosita vaznning izchil qoidalariga bo‘ysunadi», degan fikrga, bu esa o‘z navbatida, sintaktik ko‘chuv faqat aruz ruknining ko‘chishiga to‘g‘ri keladi», degan xulosani keltirib chiqaradi.

Ayrim tanqidchi va adabiyotshunoslar lirikani subyektivlik saltanati deya bong urib, muayyan she‘rni har bir she‘rxon o‘zicha talqin qilishi mumkin deb hisoblaydilar. Biroq chinakam she‘rxon asardan shoir ko‘zlagan ma‘noni anglab yetishi kerak, aslida. Poetik nutq hodisalaridan biri bo‘lgan sintaktik ko‘chuv hodisasi she‘rdan xuddi shunday ma‘noni topishga yordam beradi.

Mumtoz she‘riyat unsurlari haqida

Professor B.Sarimsoqov serqirra adabiyotshunos sifatida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, u badiiy so‘z nazariyasini muayyan bir davr, bo‘lim yoki yo‘nalish doirasida emas, bir butun tizim sifatida, tizimli tarzda tadqiq etdi. Zero, uning mumtoz adabiyot tarixi, adabiyot

nazariyasi, hozirgi adabiy jarayon hamda atamashunoslik borasida yaratgan «O'zbek adabiyotida saj'», «Saj' va qofiya», «Qofiya va she'r sistemasi haqida», «Tajnis», «Navoiy lirikasida g'azal-muloqot shakllari», «Alisher Navoiy g'azallaridagi bir sintaktik usul haqida», «Navoiy ijodida she'riy mezonlar masalasi» kabi mumtoz adabiyot poetikasiga doir maqolalari fikrimiz isboti bo'la oladi.

Dastlabki yirik tadqiqoti «O'zbek adabiyotida saj'»dayoq olim mumtoz adabiyot masalalari, ayniqsa, Navoiy ijodiga murojaat qiladi. Monografiyaning «Alisher Navoiy va saj' taraqqiyoti» deb nomlanuvchi bobida buyuk allomaning «Vaqfiya», «Majolis un-nafoyis», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Nasoyim ul-muhabbat», «Munshaot», «Mahbub ul-qulub» kabi nasriy asarlari badiiyati, ularda saj' san'atidan foydalanilgan o'rinlarni tipologik asosda tadqiq etdi [Саримсоқов 1978, 119].

Shu paytgacha Navoiy ijodi adabiyotshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda o'rganilganiga qaramay, B.Sarimsoqov uning asarlari poetikasiga oid individual talqinlarni yaratdi. Olimning aniqlashicha, Navoiy «Vaqfiya» asarida nasrning uch turi – epik nasr, saj'li nasr va vaznli nasrni qo'llagan bo'lsa-da, boshqa turdagi saj'larga nisbatan to'liq saj' ko'proq qo'llanganini: «...viloyatlardan kelgan darmondalar holining taftishi va ularni rizolari bilan uzatmoqning tashvishi, sarhad beklari elchisi taklifining zahmati va ularni dilxohlari bilan qaytarmoqning mehnati...» [Навоий 1967, 175] misoli orqali isbotlaydi hamda saj'ni Navoiyning asosiy maqsadini ifodalovchi vosita sifatida ko'rsatadi: «Navoiydagi mana shu ezgu tuyg'u va oliyjanob ruhiy holatni poetik libosda aks ettirishda to'liq saj' qo'l kelgani, shubhasiz».

B.Sarimsoqov o'zbek mumtoz she'riyati unsurlari bo'l-mish – bayt, qofiya, radif, kompozitsion o'ziga xosliklar haqida olib borgan tadqiqotlari ham ilmiy-nazariy jihatdan puxta asoslanganlik, individuallik kasb etadi. Ushbu mavzu yuzasidan u rus olimlari V.Jirmunskiy, I.V.Stebleva, V.Tomashevskiylarning she'rshunoslikka oid asarlarini ko'p o'qigani va tadqiqotlarida ulardan keng foydalanгани seziladi. Ayniqsa, qadimgi turk she'riyati spetsifikatsiyasi, barmoq tizimining aruz vazni bilan qiyosiy-tipologik, sintaktik-semantik, leksik-morfologik va boshqa jihatlardan o'rganilgan tadqiqotlarning aksariyati haqida olim o'z munosabatlarini bildirib o'tgan [Стеблева 1966, 254]. Jumladan, rus sharqshunos olimasi I.V.Stebleva o'zining «Arab-fors qofiya nazariyasi va turk she'riyatini» nomli maqolasida turk she'riyatidagi aruz vaznining eng muhim jihatlari haqida fikr yuritib: 1) ushbu vazn orfografiya – harf ta-

moyiliga asoslanadi; 2) qofiyaning bosh elementi bo'lgan harf – raviy so'zning asosi yoki o'zagida bo'lishi talab etiladi, agar raviy so'z afiksida bo'lsa, bunday qofiya to'q qofiya hisoblanmaydi. Shuningdek, qofiyadosh so'z qo'shimchasida raviy bir martadan ortiq qo'llanishi mumkin emas; 3) raviydan tashqari qofiyada 8 muhim element – 4 tasi raviydan oldin, 4 tasi raviydan keyin kelishi shart; 4) ushbu harflar o'z navbatida 6 ta unli tovushlar bilan bog'liq; 5) agar she'rning boshidan oxirigacha raviy harfi bir xil takrorlanib kelsa, to'q qofiyali she'r hisoblanadi [Стеблева 1966, 254] kabi mulohazalarni ilgari suradi. B.Sarimsoqov esa I.V.Steblevaning «aruz vazni – harf tamoyiliga asoslanadi», degan fikrlarining aksi o'laroq, ushbu vazning tovushlarga asoslanishini yuqorida nomi keltirilgan tadqiqotida misollar yordamida isbotlab beradi.

Shuningdek, olim I.V.Steblevaning «qadimgi turkiy yodnomalar turkiy xalqlarning qadimgi she'riy namunalari» degan fikriga emas, balki V.M.Jirmunskiyning «yodnomalar nasriy tuzilishga ega» degan mulohazalariga qo'shiladi. Akademik V.M.Jirmunskiy yodnomalarni nasriy tuzilishini ishonarli dalillar asosida isbotlab bersa ham, ammo bu yodnomalarga xos uslubni aniq ko'rsatmaydi va qandaydir «ko'tarinkilik» mavjud deb qo'ya qoladi. B.Sarimsoqov undan farqli ravishda, hodisa mohiyatida yotgan sababni, uni yuzaga keltiruvchi vositani ham sinchkovlik nazari bilan ilg'aydi. Ya'ni «yodnomalarga ko'tarinkilik, alohida ritmiklik baxsh etgan narsalar saj' usuli va shu tufayli yuzaga kelgan vaznli prozaning mavjudligidir», degan fikrini yodnoma matnidan keltirilgan ko'pgina misollar asosida dalillaydi.

B.Sarimsoqovning «Qofiya va she'r sistemasi haqida» nomli maqolasi xuddi shu nomdagi boshqa bir tadqiqotga munosabat tarzida yuzaga kelgan [Саримсоқов 1975, 41]. U «Aruzdagi qofiya asosan yozuvga, harf «huruf»ga, barmoq sistemasidagi qofiya akustik metodga, talaffuzga, nutq tovushlarining talaffuzdagi ohangiga suyangan» [Тўйчиев 1975, 42] degan fikrga qarshi bahsga kirishadi. «Chunki, – yozadi B.Sarimsoqov, – azaldan-oxir qofiya harfga emas, tovushlar va ularning ohangdorligiga tayanadi. Tovush va uning grafik shakli – harf haqidagi ta'limotlar keyin yuzaga kelgan. Klassik qofiya nazariyasi yaratilgan davrda fonema nazariyasi yo'q edi. Shunday bo'lgach, klassik qofiya nazariyasida huruf deb ishlatilishi tabiiy-ku. Mana shuning uchun qaytarib aytamiz, qofiya hamma vaqt, u aruzdami, barmoqdami, tovush va ularning evfoniyasiga tayangan. Alisher Navoiy, Bobur kabi klassik shoir va adabiyotshunoslar raviy deb harfni ko'rsatgan bo'lsalar ham, biroq ular shu harf asosida yot-

gan tovushni tushunganlar. Ularga faqat «fonema» termini yetishmasdi, xolos» [Саримсоқов 1975, 38].

Mazkur tahlilda «huruf» aslida «harf» degan ma'noni anglatishini e'tiborga olsak, domla aytganlaridek, «klassik qofiya nazariyasida huruf deb ishlatilishi tabiiy» emas, notabiiy bo'lib chiqadi. Olimning o'zi ham bu o'rinda huruf deganda, bizningcha, harfning yozuvdagi shaklini emas, balki uning asosida yotgan tovushni nazarda tutgan. Bu borada ayrim olimlar aruz va barmoq o'rtasiga qat'iy chegara qo'ygan bo'lsalar, B.Sarimsoqov qiyoslash asosida har ikki tizimning o'ziga xos tomonlari bilan birga ular o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rsatib beradi, barmoqdagi xalq she'riyatida ham aruz tizimiga xos xususiyatlar mavjudligini aniqladi. Ushbu mulohazalar zaminida olim ilk bor aruzning aslida barmoq tizimidan o'sib chiqqanligi haqidagi xulosasini ilgari suradi va bunday fikrlarini quruqdan-quruq taxmin tarzida emas, balki asosli nazariy xulosa sifatida taqdim etadi. U o'z mulohazalarini quyidagi misollar yordamida izohlaydi:

«Yo'q seni malak desam g'aribi,
Kim yo'q sanga ishqdin nasibi...

[Navoiy «Layli va Majnun»].

Yuqoridagi bayt hazaji musaddasi axrabi maqbuza makruf vaznida bo'lib, qofiyalangan so'z mazkur bayt doirasida uchinchi rukndadir:

Yo'q seni// malak desam// g'aribi,
Kim yo'q // sanga ishqdin// nasibi...
Maf'ulu mafoilun faulun.

Yoki:

...Jarangladi tog'larda bu kuy,
Shirin yurgan bog'larda bu kuy

[Zulfiya, «Uni Farhod der edilar»].

Keltirilgan ikki misra 9 bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan bo'lib, qofiyalanuvchi so'zlar shu ikki misra doirasida ikkinchi turoqdadir. Ikkinchidan, qofiyalanuvchi so'zning she'riy sistema talabiga ko'ra bo'linib ketishi yoki bo'linmasligi qofiyaning ritmik pozitsiyasi qat'iy ekan, uning funksiyalarini o'zgartira olmaydi. Demak, klassik qofiya nazariyasini aruz sistemasi uchun ham qo'llash mumkin [Саримсоқов 1972, 40]. Xulosalarning ilmiy jihatdan bunday ishonarliligi va dalillarga boyligi ham olim ijodining individualligiga asos bo'lgan.

B.Sarimsoqov mumtoz adabiyotshunoslikdagi bir qator muammolarga aniqlik kiritdi. Jumladan, mumtoz poetikaga doir

asarlarda uchraydigan «saj' – qofiyali proza» yoki «nasrda saj', nazmda qofiyadir» singari fikrlarning asossiz ekanligini, mazkur ikki tushuncha o'rtasidagi farqli xususiyatlarni «Saj' va qofiya» nomli maqolasida ko'rsatib berdi: «Qofiya tarkibida o'n besh element (asosan, raviy bo'lishi shart – raviysiz qofiya bo'lmaydi) bor. Vazn esa qofiyada asosiy rol o'ynamaydi. Saj'da esa vazn muhim element sanaladi, chunki saj'i mutavozinda hamvaznlik bo'lmasa, saj' san'ati yuzaga kelmaydi. Saj'i mutarrafdan hamvaznlik bo'lmay, faqat raviy e'tiborga olinadi. Ikki tur (mutavoziy, mutarraf)dagi raviydagi moslik bu turlarni qofiyaga yaqinlashtirib qo'yadi. Ammo saj' san'atini izohlashda shu ikki turgina nazarga olinmay, balki har qofiya bir narsa bo'lib chiqmaydi» [Саримсоқов 1972, 79].

Olimning aniqlashicha, saj' va qofiya vazifaviy jihatdan ham o'xshashlik hamda tafovutlarga ega. Har ikkisi ham asar mazmunini ochish, obrazlilik, evfonik va ritmik funksiyalarni bajarishiga qaramay, ularning ritmik vazifalaridagi farqlar nasr va nazm xarakteridan kelib chiqadi. Chunki nazm o'lchovli nutqqa tayanadi, nasr esa aksinchadir. Qofiya she'rda pala-partish holda emas, balki ma'lum qonuniyatlar asosida yo misralar boshida, yo o'rtasida, yo oxirida qo'llaniladi. Demak, qofiyaning qo'llanishi muayyan ritmik bo'laklarning qat'iy tengligiga asoslanadi. Saj' ham jummalarni ma'lum ritmik bo'laklarga bo'linishiga olib kelsa-da, biroq bu bo'laklar she'rdagiday qat'iy tartibga ega bo'lmaydi.

«Vaznli nasr haqida mulohazalar» [Саримсоқов 1975, 74] nomli maqolasida esa domla yuqoridagi mavzuning mantiqiy davomi bo'lgan o'zbek mumtoz adabiyotidagi vaznli nasr, uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr yuritadi. U mumtoz adabiyotdagi qofiya, saj', kompozitsion o'ziga xosliklarni tadqiq etar ekan, bu bilan hozirgi o'zbek she'riyatidagi shakliy xususiyatlar, ularning tarixiy ildizlari masalalarini ilmiy asosda o'rganish fan oldidagi muhim vazifalardan ekanligini teran anglaydi. Keyinroq olim xuddi shunday muammolarga doir bir qator tadqiqotlar olib bordi [Саримсоқов 2001, 28]. Xususan, «Alisher Navoiy lirikasida g'azal-muloqot shakllari» [Саримсоқов 2000, 12] nomli maqolasida buyuk shoir ijodida g'azal-muloqot fenomeni, uning shakllari, va poetik tizimini tadqiq etib, undagi o'ziga xosliklarni asoslab berdi.

Navoiy she'riy mezonlar masalasi

«Navoiy va she'riy mezonlar masalasi» [Саримсоқов 2004, 18] deb nomlanuvchi maqolasida mumtoz adabiyotdagi she'riy kanonlar, ularning adabiy jarayonda qaror topishi va janrni nomlashdagi

muammolar xususida fikr yuritilgan. She'riy janrlar masalasiga doir uzil-kesil hal qilinmagan ilmiy qarashlar B.Sarimsoqov e'tiborini o'ziga tortadi. Ayrim ilmiy monografiyalarda alohida bir asarga ikki janr atamasining ishlatishi, xususan, akademik B.Valixo'jayevning ishlarida «tuyuq-ruboiy», «qit'a-tuyuq», professor R.Orzibekovning kitoblarida «tuyuq-ruboiy», «ruboiy-tuyuq» tarzida qo'llanishini terminologik chalkashlik deb baholaydi.

Tuyuqning janr xususiyatlari, etimologiyasi bilan bog'liq bir-birini to'ldiruvchi, mukammallashtiruvchi, undagi o'ziga xoslikni ko'rsatuvchi fikrlar ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan. Ushbu janrga oid ilk fikrlarni Navoiy va Bobur bildirgan bo'lsalar, keyinchalik Y.E.Bertels, E.Rustamov, H.Zarif, N.Mallayev, B.Valixo'jayev, I.Stebleva, R.Orzibekov, A.Bagirov, T.Xo'jayev va boshqa olimlar bu qarashlarni yanada mukammallashtirdilar. Hodi Zarif: «Tuyuq» o'zbek adabiyotining milliy bir formasi bo'lib, hozir tor ma'noda «qo'shiq» deb ataganimiz to'rt yo'ldan iborat mustaqil she'rlarga mos keladi» desa, rus sharqshunosi Y.E.Bertels «omonim so'zlar unchalik ko'p emas, shunday ekan, yaxshi tuyuq yaratish ancha qiyin» degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

B.Sarimsoqov esa bu xususda Navoiyning ilmiy-nazariy qarashlariga asoslanadi. Navoiy «Turk ulusi bataxis chig'atoy xalqi aro shoi' avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab, majolisda ayturlar» deb, tuyuq janri belgilarini aniq ko'rsatadi, shundan keyin u ikki bayt, tajnis aytilishi va o'sha vaznning «ramali musad-dasi maqsur»dan iborat bo'lishini ta'kidlagan. Buyuk shoirning nazariy qarashlari mohiyatini to'g'ri anglagan olim shu o'rinda uning tuyuq ta'rifiga xos nozik bir jihatini topadi. Bu jihatni «sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay», degan jumlada ko'radi. Hozirda biz tilimizda qo'llaydigan «sa'y» so'zini faqatgina urinmoq, harakat qilmoq ma'nolarida qo'llanayotgani, hatto bu so'zni harakat so'zi bilan juft holda, ya'ni «sa'y-harakat» tarzida noto'g'ri qo'llanayotgani, aslida «sa'y» harakat qilib erishmoq degan ma'no anglatishidan, tuyuqda tajnis qo'llanishi shart ekanligini ta'kidlaydi [Саримсоқов 2004, 31].

Xulosa

Poetik nutq hodisalaridan biri bo'lgan anjambeman – she'rga singdirilgan nafaqat hissiy, fikriy boylik, balki ana shu boylikni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladigan usul hamdir. Xuddi shunday betakror imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda, B.Sarimsoqov «Poetik ko'chuv g'azaldagi monotonlikka barham

beradi, she'riy nutqni jonli nutqqa yaqinlashtiradi, eng muhimi, poetik fikrni aniq, mantiqli ifodalashga yo'l ochadi», deya unga yuqori baho beradi. Poetik sintaksisdagi mazkur hodisa inkishofida, avvalo, olimning o'zigagina xos bo'lgan falsafiy-mantiqiy tafakkuri yaqqol aks etgan. Chunki ushbu hodisaning o'zi ham sabab-oqibat singari mantiqiy munosabatlarga asoslanadi. Bunday ilmiy kashfiyotlar olim ijodiy individualligida muhim o'rinni egallab, o'quvchining badiiy asar mohiyatini to'g'ri anglashiga keng imkon yaratadi.

B.Sarimsoqov mumtoz she'riy janrlar nomlanishiga ham e'tibor qaratib, ularga xos yetakchi xususiyatlarni to'g'ri ko'rsatadi. Jumladan, ruboiyning to'rt misrada katta falsafiy mazmunni ifodalashi, qit'aning kesilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan shaklda ibratli yaxlit fikr bildirishi, qasidaning u yoki bu narsani, shaxs yoki voqeani madh etish yoxud tanqid etishga qaratilganligini ta'kidlash bilan bir qatorda, «tuyuq» termini ifodalagan ma'nosiga asoslanib, ushbu janrning yetakchi xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Unga ko'ra, «tuyuq» so'zi qadimgi turkiy tilda siqilgan, tumanli, bulutli va yumuq ma'nolarini anglatib, uning yetakchi kanoni tajnis hisoblanadi. Demak, «bevosita tajnisgina tuyuqdagi mazmunni xira, yumuq» ifodalashga xizmat qiladi. B.Sarimsoqovning mumtoz adabiyotdagi shu singari ko'plab tadqiqotlari, she'riy tizimlar, janrlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va kanonlari, vaznli nasr xususida olib borgan izlanishlari adabiyotshunosligimizni yangi nazariy bilimlar bilan boyitdi.

Adabiyotlar

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2007. 3-жилд. Тошкент: ЎЗМЭ.

Небросина, Н.П. 2014. *Синтаксис стихотворной речи как предмет лингвопоэтического исследования: на материале англ. и амер. поэзии XVI-XX вв.* АКД. Пермь.

Жирмунский, В. М. 1964. "Ритмико-синтаксический параллелизм как основа древнетюркского народного стиха". *Вопросы языкознания* 4: 3 – 24.

Жирмунский, В. М. 1975. *Теория стиха.* Ленинград.

Томашевский, В. В. 1959. *Стилистика и стихосложение.* Ленинград.

Тўйчиев, У. 1975. "Қофия ва шеър системаси". *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 36 – 42.

Саримсоқов, Б. 2001. "Алишер Навоий поэтик синтаксисидаги бир усул хусусида". *Ўзбек тили ва адабиёти* 2: 10 – 13.

Саримсоқов, Б. 2004. "Алишер Навоий лирикасида ғазал-мулоқот шакллари". *Ўзбек тили ва адабиёти* 7.

Саримсоқов, Б. 2004. "Алишер Навоий ва шеърӣй мезонлар масаласи". *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 16 – 21. Тошкент.

Саримсоқов, Б. 1987. *Ўзбек маросим фольклори.* Тошкент: Фан.

- Саримсоқов, Б. 1978. *Ўзбек адабиётида сажъ*. Тошкент: Фан.
- Саримсоқов, Б. 1975. “Қофия ва шеър системаси”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 36 – 41.
- Саримсоқов, Б. 1972. “Сажъ ва қофия”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 79 – 81.
- Саримсоқов, Б. 1975. “Вазнли наср ҳақида мулоҳазалар”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 73 – 74.
- Стеблева, И. В. 1965. *Поэзия тюрков VI-VIII в.в.* Москва.
- Стеблева, И. В. 1964. *О проникновении арабо-персидских метров в тюркоязычную поэзию.* Москва.
- Стеблева, И. В. 1978. «Преодоление традиционной тематической нормы в газели Бабура». *Тюркологический сборник, 1978.* 226 – 233. Москва: Издательство «Наука».
- Стеблева, И. В. 1966. «Арабо-персидская теория рифмы и тюркоязычная поэзия». *Тюркологический сборник* 246 – 254. Москва: Наука.

The Phenomenon of Poetic Syntax in Alisher Navoi’s Ghazals (Based on the Studies of Professor Bahodir Sarimsoqov)

Zarina Rahmonova¹

Abstract

This article discusses the phenomenon of poetic syntax found in the ghazals of Alisher Navoi. It is known that poetic syntax analyzes the syntactic function of every artistic method and tool within the context of artistic text. It examines the author’s goals and the stylistic functions attributed to particular tools, as well as the methods used to convey them. B. Sarimsoqov’s research titled “Regarding a Method in Alisher Navoi’s Poetic Syntax” also emphasizes these aspects of poetic syntax. Prior to this, numerous tools and methods within poetic syntax have been studied as phenomena of artistry by both Western and Eastern poetry scholars. The distinct aspect of the syntactic method discovered by B. Sarimsoqov manifests in its interpretation as a means of expressing deep philosophical-log-

¹Rahmonova Zarina – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Sharof Rashidov Samarkand State University.

E-mail: chechak@mail.ru

ORCID ID: 0009-0009-3941-7448

For citation: Rahmonova, Z. 2025. “The Phenomenon of Poetic Syntax in Alisher Navoi’s Ghazals (Based on the Studies of Professor Bahodir Sarimsoqov)”. *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 64 – 77.

ical thought in an emotional manner, particularly within the context of the ghazals of Navoi, specifically within the framework of the aruz system.

Key words: *epic prose, rhymed prose and metric prose, comparative-typological, syntactic-semantic, lexical-morphological, internal rhythm, causality, orthography, affix, specification of Turkic poetry, poetic canons.*

References

- O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2007. 3-jild. Toshkent: O'zME.
- Nebrosina, N.P. 2014. *Sintaksis stixotvornoy rechi kak predmet lingvoporeticheskogo issledovaniya: na materiale angl. i amer. poezii XVI-XX vv.* AKD. Perm.
- Jirmunskiy, V. M. 1964. "Ritmiko-sintaksicheskiy parallelizm kak osnova drevnyeturkskogo narodnogo stixa". *Voprosy yazykoznaniya* 4: 3 – 24.
- Jirmunskiy, V. M. 1975. *Teoriya stixa*. Leningrad.
- Tomashevskiy, V. V. 1959. *Stilistika i stixoslojenie*. Leningrad.
- To'ychiev, U. 1975. "Qofiya va she'r sistemasi". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 36 – 42.
- Sarimsoqov, B. 2001. "Alisher Navoiy poetik sintaksisidagi bir usul xususida". *O'zbek tili va adabiyoti* 2: 10 – 13.
- Sarimsoqov, B. 2004. "Alisher Navoiy lirikasida g'azal-muloqot shakllari". *O'zbek tili va adabiyoti* 7.
- Sarimsoqov, B. 2004. "Alisher Navoiy va she'riy mezonlar masalasi". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 16 – 21. Toshkent.
- Sarimsoqov, B. 1987. *O'zbek marosim folklori*. Toshkent: Fan.
- Sarimsoqov, B. 1978. *O'zbek adabiyotida saj'*. Toshkent: Fan.
- Sarimsoqov, B. 1975. "Qofiya va she'r sistemasi". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 36 – 41.
- Sarimsoqov, B. 1972. "Saj' va qofiya". *O'zbek tili va adabiyoti* 1: 79 – 81.
- Sarimsoqov, B. 1975. "Vaznli nasr haqida mulohazalar". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 73 – 74.
- Stebleva, I. V. 1965. *Poeziya tyurkov VI-VIII v.v.* Moskva.
- Stebleva, I. V. 1964. *O proniknovenii arabo-persidskix metrov v tyurkoyazichnuyu poeziyu*. Moskva.
- Stebleva, I. V. 1978. «Preodolenie traditsionnoy tematicheskoy normi v gazeli Babura». *Tyurkologicheskiy sbornik*, 1978. 226 – 233. Moskva: Izdatelstvo «Nauka».
- Stebleva, I. V. 1966. «Arabo-persidskaya teoriya rifmi i tyurkoyazichnaya poeziya». *Tyurkologicheskiy sbornik* 246 – 254. Moskva: Nauka.